

PIRIMQUL QODIROV IJODIDA INSONIY FAZILATLARNING ILGARI SURILISHI

*Botirova Anaxon Dilmurod qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti 2-kurs
talabasi*

PROMOTION OF HUMANISM IDEAS IN PIRIMKUL KADYROV'S WORK

*Botirova Anakhan Dilmurod qizi, Second year student of the
Faculty of Philology and Art of Urgench state University named
after Abu Raykhan Biruni*

ПРОДВИЖЕНИЕ ИДЕЙ ГУМАНИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА

*Батирова Анахон Дилмурод кызы, студентка 2-курса
факультета филологии и искусства Ургенчского
государственного университета имени Абу Райхана Беруни*



<https://orcid.org/0009-0003-7963-7329>

e-mail:

anaxonotirova362@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Pirimkul Qodirov asarlaridagi insonparvarlik fazilatlari to'g'risida so'z boradi. Yozuvchi muallifligidagi asarlar misolida mavzu yoritiladi.

Kalit so'zlar: gumanizm, adib, ijodkor, inson, konsepsiya, insonparvarlik, muallif, qahramon, personaj.

Annotation: This research paper deals with humanitarian qualities in the works of Pirimkul Kadyrov. The topic will be covered by the example of the author's works.

Key words: humanism, writer, creator, human, concept, humanitarianism, author, hero, character.

Аннотация: В данной исследовательской работе рассматриваются гуманитарные качества творчества Пиримкула Кадырова. Тема будет раскрыта на примере произведений автора.

Ключевые слова: гуманизм, писатель, творец, человек, концепция, автор, герой, персонаж.

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Adabiyot shunchaki qog'ozga to'kilgan tasvir yoxud quruq gaplar yig'indisi emas, adabiyot inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadigan, kitobxonni gohida quvontirib, gohida mahzun ahvolga soladigan qudratli kuchdir. Bu haqda 16 yoshli munaqqid - Cho'lpon fikrlarini obrazli tarzda shunday ifodalaydi: "Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qaralgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan, qora balchiqlarni tozalaydurg'on, o'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvidur"[1]. Ko'rinib turganidek, badiiy adabiyotning asosiy

vazifasi inson ma'naviyatini poklash, uni to'g'ri yo'l tomon boshlashdir.

Har bir davr adabiyotida shunday mavzular bo'ladiki, bunday mavzular hech qachon eskirmaydi. Aksincha, zamonlar almashgani, vaqtlar o'tgani sari o'z ahamiyatini qaytadan kashf qilib boraveradi, o'z muxlislarini topaveradi. Bular inson qadr-qimmatiga bag'ishlangan mavzulardir. Binobarin, O'zbekiston xalq yozuvchisi Pirimkul Qodirov ijodida ham ushbu mavzu o'zining haddi a'losiga yetgan. Sababi adibning barcha irod namunalarida oddiy, samimiy qishloq insonlari hayoti qalamga olinadi. Muallif asar davomida har bir qahramonining ichki va tashqi dunyosini shunday go'zal kashf etadiki, bu tasvirlar asarning umrboqiyiligiga zamin yaratadi. Mustabid

tuzum qiyinchiliklari ostida ezilgan xalqimizning qayg‘u va hasratlariga sherik bo‘ladi, har doim olg‘a intilishga undaydi, ularga dalda berishga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Pirimqul Qodirov ijodida gumanizm – insonparvarlik mavzusi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu to‘g‘risida taniqli tanqidchilar: Umarali Normatov, Matyoqub Qo‘shjonov, Baxtiyor Nazarov kabilarning adabiy-tanqidiy maqolalarida aytib o‘tilgan. Ushbu maqolada esa deyarli barcha asarlarda gumanizmning qay darajada yoritilganligi umumlashtirib tahlil qilinadi. Tadqiqotni amalga oshirishda kuzatish, induksiya, tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ / DISCUSSION AND RESULTS). “Odam o‘zining g‘ururi bilan erkini bayroqday baland tutishi kerak”[2], - deya “Qora ko‘zlar” asari qahramonlaridan biri tomonidan aytilgan ushbu fikrlarni Pirimqul Qodirovning barcha asarlari uchun epigraf qilib olsak to‘g‘ri bo‘ladi. Chindan ham, adib yaratgan barcha qahramonlar nafaqat o‘zining erki, qadr-qimmatini bayroqdek ko‘klarga ko‘taradi, balki xalqning dardi bilan yashaydi, yurt farovonligi, odamlar tinchligini hamma narsadan ustun qo‘yadi. Asarlarga tanlangan sarlavhalar ham (“Qadrim”, “Uch ildiz”, “Erk”, “Meros”, “Olmos kamar”, “Jon shirin”) shundan dalolat beradi. Pirimqul Qodirovning ijodiga bag‘ishlangan maqolalardan birida adibning shunday jumalari uchraydi: “Avvallari aytib bo‘lmaydigan sirni endi aytishim mumkin, – deydi adib “Ko‘rgan-kechirganlarim” turkumiga kirgan maqolalaridan birida. “Uch ildiz”dan boshlab “Olmos kamar” va “Avlodlar dovoni”gacha yozgan asosiy narsalarimning hammasida mustabid mafkuraga ma’naviy qarshilik ko‘rsatish hissi, xalqimizni uning xavf-xatarlaridan asrash istagi, bizni millat sifatida yo‘qotishga qaratilgan shafqatsiz siyosatdan odamlarimizni, dilimiz va tilimizni himoya qilish maqsadi menga eng ko‘p ilhom va kuch bergan hislar, istak va maqsadlar edi” [3].

Inson sha’ni ulug‘langan asarlarni mutolaa qilar ekanmiz, adib qahramonlar xarakterini yoritishda kontrast usulidan mahorat bilan foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz. Personajlarning

ichki olamini to‘laqonli aks ettirish, ularning bir-biriga munosabati, tabiat, el-yurt bilan bo‘lgan aloqalarini tasvirlashda adib ularning har bir qirrasiga tayanadi, keng dunyoqarashi va aniq dalillar bilan ish ko‘radi. Shuning uchun ham akademik shoirimiz G‘afur G‘ulom shunday yozadi: “Yozuvchi kishining ichki dunyosini tasvirlar ekan, o‘z tajribasiga suyanadi. Shuning uchun ham bu tajriba qanchalik keng bo‘lsa, qahramonning ichki dunyosi ham shu qadar boy bo‘ladi”[4]. Binobarin, yozuvchining tarixiy asarlari sirasiga kiruvchi “Yulduzli tunlar” va uning mantiqiy davomi hisoblangan “Avlodlar dovoni” romanlari qahramonlari, yuqorida ta’kidlaganimizdek, gumanizmni bayroqdek tik ko‘tarib yuradigan siymolar sifatida tasvirlangan. Bobur asarda chinakamiga xalq dardi bilan yashaydi. Chunonchi, P.Qodirovning adabiy izlanishlari hosilasi sifatida paydo bo‘lgan to‘qima obraz – Tohir qiyofasida, qilgan xatti-harakatlarida insonparvarlikning asl ko‘rinishlari mavjud. Asarda faqatgina yuqori tabaqa vakillarining hayoti emas, balki oddiy qishloqdan chiqqan insonlar turmush tarzi ham bayon qilinadi. Shuning uchun ham roman quvalik oddiygina dehqon farzandi bo‘lgan Tohir va Robiyaning munosabatlari, sevgi qissalari bilan boshlanadi. O‘z xalqiga dushman qo‘shinining yopirilib kelayotganini payqagan Tohir do‘stlari bilan birgalikda ko‘prikni arralashga tushadi. Vaholanki, shaharga kirish uchun boshqa yo‘l yo‘q, buni ko‘rgan yov ortga qaytishga majbur bo‘ladi. Bu esa Tohir tabiatiga xos bo‘lgan vatanparvarlikning bir ko‘rinishidir. Yoki Xonzodabegim Bobur nohush yotganida erkakcha to‘n kiyib, beliga kamar bog‘lab, qo‘liga xanjar olib, qal’ani himoya qilish uchun harakat qiladi. Bu ham tug‘ilib o‘sgan ona yurtga bo‘lgan fidokorlikdir. Endigina 10 yoshga to‘lgan Hurramshoh tomonidan ko‘rsatilgan jasorat ham yuqoridagi fikrlarimizning dalilidir. U tog‘asi uchun jangga kirib, o‘q yeb halok bo‘ladi.

“Baxt va kamolot osmoniga har kim o‘z qanoti bilan uchib chiqadi. Qushlar bir-biriga har qancha mehribon bo‘lganlarida ham, baribir ularning har qaysisi o‘z qanoti bilangina parvoz eta oladi. Inson shaxsi har tomonlama kamol topgandagina unda ma’naviy parvozga yaraydigan qanotlar paydo bo‘ladi. Bunday qanotlarni tayyor holda meros olib bo‘lmaydi, ular mukofotga yoki qarzga berilmaydi, ularni pulga sotib olish mumkin emas. Ular faqat uzoq davom etgan o‘qish, kurash, mehnat va

ma'naviyat takomili natijasidagina ichdan o'sib otiladi" [5]. Adibning "Uch ildiz", "Qadrim" kabi asarlari yuqoridagi konsepsiyaga to'liq mos keladi. Chunki bu asarlarda insonning har bir davrda orttirgan tajribalari, ko'nikmalari to'planib, komil inson bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Iskandar va Zulayho obrazlari kitobxonni inson o'z sha'ni va qadr-qimmatini saqlashi masalasiga da'vat etsa, Temur Akbarov, Abdurahmon Toshev, Ochil Samadov, Mahkam Mahmudov kabi personajlar hayotda yaxshi nom qoldirishni o'zlari uchun oliy qadriyat deb bilishadi. Jumladan, Iskandar kashf etgan hayot falsafasi quyidagicha jaranglaydi: "Menimcha, hayotda eng muhimi – odamparvar bo'lish-u kishilarimizga yaxshilik qilish, insonning qadr-qimmatini uchun ham tinmay kurashish. Chunki kishi o'z qadrini bilmaguncha o'z baxtini tanimaydi"[6].

Badiiy adabiyot insonshunoslikning eng oliy cho'qqisi bo'lganligi uchun ham davr sharoitida odamlarda yo'qolib borayotgan nodir fazilatlarni qayta tiklash, jamiyatni vatanparvarlik, halollik, do'stlik ruhida tarbiyalash ijodkor oldida turgan eng muhim vazifadir. Ayniqsa, burch va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish yozuvchining "Olmos kamar" deb nomlangan romanining bosh maqsadidir. "Olmos kamar" romanida barcha obrazlardagi yaxshilik olmos kamarga tenglashtiriladi. Ana shu yaxshilikning jamiyatni tutib turishi, taraqqiyotni ta'minlashi, istiqbolni yaratishi har bir obrazda va umuman butun asar yaxlitligida emotsional-estetik tarzda o'z ifodasini topgan"[7]. Asarni shartli ravishda "Uch ildiz" romanining mantiqiy davomi deyish mumkin. Mahkam va Ochil uchun eng buyuk vazifa – oliy ma'lumotli kadr bo'lib yetishish, o'z baxtini topish va yurt koriga yaraydigan farzand bo'lib yetishish edi. Ammo "Olmos kamar" romani qahramonlari Abror va uning turmush o'rtog'i Vazirada yuqoridagi uch ildiz ham mukammal shakllangan. Obro'-e'tibor, boylik, uy-joy, farzand – hammasi ularda mavjud. Ammo Abrorning zimmasidagi burch va vazifalari hali tugagani yo'q. Gap shundaki, odam ma'naviy kamolotga yetgani sari, undagi burch va mas'uliyat hissi tobora ortib boraveradi. "Vijdoni bor, samimiy odamning eng qattiqqo'l hakami – uning o'zida, dilida bo'ladi. Abror faqat ishdagi o'z vazifasinigina emas, uydagi otalik yoki farzandlik, erlik yoki qaynilik burchini ham bajarmaguncha ana shu ichki hakam unga tinchlik bermaydi"[8]. Aslida bu ham insonparvarlikning bir ko'rinishi. Farzandlari o'sib-

ulg'ayib kamolga yetganida ham ana shu mas'uliyat hissini o'ylagan holda qadam bosadi.

Ijodkorning faqatgina katta-katta romanlari emas, balki kichik hikoyalari ham insonparvarlik ruhi bilan ziynatlangan. Xususan, paxtaga sepiladigan dorining ta'siri tufayli bevaqt vafot etgan Ziyodullaning ayanchli o'limi bilan boshlanuvchi "Jon shirin" hikoyasi fikrimizning dalilidir. O'sha vaqtlarda paxtadan mo'l hosil olish maqsadida raislar qing'ir yo'llardan borishni to'g'ri deb bilishdi. Ana shu mudhish ish juda ko'plab talofatlarga olib kelishi haqida kuyinib yozgan birinchi ijodkor ham Pirimqul Qodirov edi. Hikoya bosh qahramoni Muzaffar "amal kursisi"da o'tirgan amalparastlarning adolatsizliklariga qarshi isyon ko'taradi. Bu ish unga xalq baxtsizligini yuzaga keltiruvchi omil bo'lib tuyuladi. Odamiylik nuqtayi nazaridan yomonlarga yomonlik, yaxshilarga esa yaxshilik bilan javob qaytaradi. "Bu asar yaratilgan davr uchungina emas, adolatsizliklar barham topib borayotgan shu kunlarimiz uchun ham nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishi o'z-o'zidan ayon, albatta"[9].

XULOSA sifatida aytishimiz mumkinki, insonparvarlik g'oyasi Pirimqul Qodirovning barcha asarlari uchun konsepsiya darajasiga ko'tarilgan, uni boshqa ijodkorlardan ajratib turadigan xususiyatdir. Zero, adabiyot ham, jamiyat ham ana shu tuyg'ular bilan hamisha barhayot.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cho'lpon. Adabiyot nadir? – T.: Cho'lpon, 1994.
2. Qodirov P. Qora ko'zlar. – T.: Sharq, 2008.
3. Isomiddinov Z. Adibning taqdiri. //Tafakkur jurnali, 2008. №3.
4. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – T.: O'zbekiston, 2001.
5. Normatov U. Yetuklik//Izlanish quvonchi va tashvishlari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
6. Qodirov P. Qadrim. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
7. To'rayev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – T.: Universitet, 2001.
8. Normatov U. Yetuklik//Izlanish quvonchi va tashvishlari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
9. Nazarov B. Rang-baranglik. – T.: Yosh gvardiya, 1988.